

GRADASIYANING LEKSIK-SEMANTIK TILLAR MIQYOSIDA TADQIQ QILISH MASALASI

Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna

dosent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Andijon davlat chet tillari instituti

Andijon, Uzbekiston

Gradatsiya hodisasiga E.Sepir birinchilardan bo'lib e'tibor qaratib[8.93], uni ma'lum bir shkalaga asoslanib tartiblanish sifatida tasniflab u mazkur hodisani tadqiq qilishning asosiy yo'nalishlarini belgiladi. E. Sepir gradatsiyalanishning mantiqiy, psixologik va lingvistik jihatlarini ajratdi; gradatsiyaning belgilarga izoh berilishi miqyosini ajratdi (eksplitsit, implitsit va salohiyatli gradatsiyalanish); gradatsiyaning kontseptual apparatini belgiladi; o'lchov bilan gradatsiyalanishning va hissiy baho bilan kvantifikatsiyaning aloqasini ko'rib chiqdi; gradatsiyaviy mulohazalar turlarini ajratdi. Modomiki gradatsiya – boshqa til tushunchalari bilan aloqani aniqlovchi ko'p rejali hodisa ekan, uning alohida jihatlarini tilshunoslikning boshqa masalalarini ko'rib chiqishda tadqiq qilindi.

Gradatsiyaviylik masalalari ayniqsa leksiko-semantik tizimlar miqyosidagi miqdoriy tushunchalarni tadqiq qilish jarayonida aniqlanadi. Ushbu fikr yuzasidan rus tili, ingliz tili, nemis tili materialidagi miqdorlarni belgilashning leksik va frazeologik vositalari tarkibi tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan. S.A. Shvachko monografik tadqiqotida miqdorni ifodalashning turli gradatsiyadagi vositalari ingliz, rus va ukrain tillarini qiyoslash orqali ko'rib chiqilgan[5.143]. Mazkur tadqiqotlar natijasida mazmuniy jihatdan miqdor tushunchasi bilan gradatsiya aloqasi aniqlandi: miqdor ma'nosiga ega leksikaning ma'lum qismi gradatsiyalanish qobiliyati bilan xarakterlanadi. Masalan quvvat, to'plam va miqdor o'lchovlari kabi mikrotizimlardan tashkil topgan so'zlar, katta o'lchovlar qatoridagi iboralar guruhi»[1.25]. Bundan tashqari keltirilgan ishlarda[1.25] miqdor tushunchasi asos va periferiya qismlariga ega ierarxik tashkil qilingan funktsional-semantik maydon sifatida ko'rib chiqiladi. Shunday tarzda gradatsiya tarkibiy holatda tadqiq qilinadi. Maydon konstituentlari guruhlanadi, miqdor to'plamini taqdim qilinishi gradatsiyasiga bog'liq holda tartibga solinadi: maydon asosi miqdorning ustun turuvchi oilasiga ega birliklarni tashkil qiladi, periferiya ikkinchi gradatsiyali to'plam birliklarni aks ettiradi; maydon elementlari o'zaro bog'liq bo'ladi, maydon chegaralari yopiq va harakatchan sanaladi.

Gradatsiyaning turli jihatlarini rus, ingliz, nemis, frantsuz tillaridagi materiallarda keltirilgan intensivlik tushunchasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'rganiladi. Unda turli til gradatsiyalari birliklarini intensivfikatsiyalash vositasi, leksik kuchaytirgichlarni kelib chiqish manbalari, turli nutq qismlari bilan intensivfikatorlarni uyg'unlashtirish xususiyatlari, mulohaza intensivfikatsiyasi ko'rib chiqiladi. Xorijiy tadqiqotlardan D. Bolindjer ishini qayd qilish mumkin bo'lib, unda intensivfikatorlarning semantik xususiyatlari va ular bilan birgalikdagi so'zlar o'rganiladi[7.345].

Ko'plab tadqiqotchilar miqdor tushunchasi bilan intensivlik aloqasini qayd qiladilar, uni miqdor tushunchasining xususiy holi sifatida ko'rib chiqadilar, bu bizningcha to'g'ri emas. Ammo intensivlik tushunchasi turli tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ayrim olimlar intensivlik tushunchasi bilan hissiyotlilik, ta'sirchanlik, emfaza kabi turli hodisalarni bog'laydilar. Masalan, I.I. Turanskiy intensivlikni ekspressivlikning miqdor o'lchovi sifatida izohlab quyidagilarni keltiradi: «tabiatda har bir predmet o'lchamlar bilan xarakterlanadi, nutq faoliyatidagi ekspressivlik – bu nutqning sifat tomoni, intensivlik esa sifatning miqdoriy xususiyatidir»[4.19]. Boshqa tadqiqotchilar (K.M. Suvorina, Ye.I. Sheygal, Ye.V. Bel'skaya) intensivlik va ekspressivlik o'rtasida sabab-oqibat munosabatlarini ko'rib chiqadilar. Ye.I. Sheygal qayd qilishicha intensivlik til birliklarining ta'sir qiluvchi kuchini oshirishning ko'p

sonli vositalaridan biridir[6.26]. Ye.V. Belyskaya intensivlik va ekspressivlik o'rtasidagi sabab –oqibat aloqalarini rag'batlantirib, intensivlikning past gradatsiyasi ekspressivlikni qo'zg'atmaydi, intensivlikning yuqori gradatsiyasi so'zlovchining hissiy reaksiyasiga olib keladi deb hisoblaydi[2.318]. Intensivlik tushunchasiga ko'plab tilshunoslar gradatsiyaviylikni kiritib, mazkur tushunchani gradatsiya, gradatsiyaviylik terminlari yordamida aniqlaydilar. Ye.I. Sheygal, masalan intensivlikni belgining namoyon bo'lish miqyosidagi gradatsiyani aks ettirish uchun xizmat qiladigan va turli til pog'onalari vositalari bilan ifodalanadigan til tushunchasi sifatida izohlaydi[6.4].

I.I. Turanskiy qayd qilishicha intensivlikning semantik tushunchasi asosida mazkur so'zning keng ma'nodagi miqdor gradatsiyasi tushunchasi yotadi[4.7]. K.M. Suvorin intensivlikni ifodalash uchun xizmat qiluvchi so'z qatori sifatida intensivlarni ajratib ularning semantikasi miqdoriy aynan gradatsiyaviy tafovutda aks etadi deb hisoblaydi. L.G.Kotnyuk belgi intensivligi, belgi intensifikatsiyasi, belgi gradatsiyaviylik, belgi gradatsiyasi kabi terminalarni sinonim sifatida qo'llaydi[3.152]. Mazkur tadqiqotda intensivlik va miqdorga ega gradatsiyaviylik aloqasi tan olinadi. Bunday yondashuv gradatsiya tushunchasini toraytiradi, mazkur hodisani har tomonlama tadqiq qilishni imkonsiz qiladi, modomiki gradatsiya tushunchasi intensivlik tushunchasidan ancha kengdir. Intensivlik – belgi namoyon bo'lish gradatsiyasini aks ettiruvchi tushunchadir. Gradatsiya belgi o'zgarishini qayd qilish jarayoni bo'lib, u ikki yo'nalishda amalga oshadi: o'sish va kamayish, hamda mazkur jarayon natijasini qayd qilishdir. Gradatsiyalanganlik – belgining xususiyati bo'lib, uning o'zgarish qobiliyati sanaladi va ma'lum davrdagi o'zgarishlar bilan qayd qilingan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акуленко Л.Г. Выражение неопределенно большого и неопределенно малого количества в немецком языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04 / Киев.гос. ун-т им. Т.Г. Шевченко. – Киев, 1984. – 25 с.
2. Бельская Е.В. К вопросу о месте категории интенсивности в ряду лексико-семантических категорий (на материале говора с. Вершинино) // Мова і культура. – К.: Видавничий Дім Дмитра Бураго, 2004. – Вип. 7. – Т. 6. С – 318 (С. 314-321).
3. Котнюк Л.Г. Выражение градуальности признака в семантике имен прилагательных со значением размера (на материале английского языка): Дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – Киев, 1986. – 152 с.
4. Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. – М.: Высш. школа, 1990. С – 7 (173 с).
5. Швачко С.А. Языковые средства выражения количества в современном английском, русском и украинском языках. – Киев: Вища школа, 1981. – 143 с.
6. Шейгал Е.И. Интенсивность как компонент семантики слова в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.04 / Моск. гос. пед. ин-т иностр. яз.им. Мориса Гореза. – М., 1981. – 26 с.
7. Bolinger D. Degree words. – The Hague – Paris: Mouton, 1972. – 324 p.
8. Sapir E. Grading. A study in semantics // Philosophy of Science. – 1944. – Vol. II, № 2. – p. 93-116.